



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI Demografik holat

2021- yil yanvar-sentabr

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga 1 028,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 14,7 ming kishiga yoki 1,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 502,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 525,4 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **14 721 kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **19 857 nafarni** tashkil etdi.
- **3 717 nafar** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6 997 nafar nikoh** va **920 nafar ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2021- yil 1- oktabr** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 204,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 155,9 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni G'ozg'on shahrida 8,9 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (0,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2020- yilning yanvar-sentabrga** nisbatan G'ozg'on shahrida 121,9 % ni, Karmana tumanida 103,0 % ni, Navoiy shahrida 102,5 % ni, Tomdi tumanida 102,0 % ni, Navbahor tumanida 101,7 % ni va Qiziltepa tumanida 101,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)



**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2021- yil 1- oktabr holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
--	-----------------------	-----------------	----------------	---------------------------	----------------------------	--

Viloyat bo'yicha:	1 028 352	521 207	507 145	502 950	525 402	9,3
------------------------------	------------------	----------------	----------------	----------------	----------------	------------

shaharlar:


Navoiy	149 607	75 168	74 439	149 607	-	2 493,3
Zarafshon	85 352	44 663	40 689	85 352	-	4 265,0
G'ozg'on	8 907	4 779	4 128	8 907	-	15,1

tumanlar:

Karmana	131 219	64 960	66 259	42 941	88 278	139,6
Konimex	36 581	19 296	17 285	16 702	19 879	4,0
Qiziltepa	155 870	78 776	77 094	49 068	106 802	71,2
Navbahor	116 266	58 928	57 338	16 571	99 695	74,1
Nurota	86 289	44 324	41 965	48 995	37 294	14,5
Tomdi	15 356	7 812	7 544	4 936	10 420	0,4
Uchquduq	38 123	18 849	19 274	33 479	4 644	0,8
Xatirchi	204 782	103 652	101 130	46 392	158 390	144,2

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- oktabr holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Qiziltepa tumanida 9,8 % ni, Nurota tumanida 9,7 % ni, Xatirchi tumanida 9,2 % ni, Karmana tumanida 8,5 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex va Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.


Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi (2021- yil 1- oktabr holatiga, foizda)



Aholining tabiiy harakati yanvar-sentabr holatiga


	2020- yil kishida	2021- yil kishida	o'sish, kamayish	2020- yil har ming kishiga	2021- yil har ming kishiga
<i>Tug'ilganlar</i>	17 698	19 857	2 159	23,6	26,0
<i>O'lganlar</i>	3 668	3 717	49	4,9	4,9
<i>Tabiiy o'sish</i>	14 030	16 140	2110	18,7	21,1
<i>Nikohlar</i>	5 819	6 997	1 178	7,7	9,2
<i>Ajralishlar</i>	669	920	251	0,9	1,2

yanvar–sentabr holatiga aholining tabiiy harakati, birlikda



Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr) yillar, ming kishi

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 19 857 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,0 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,4 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 23,6 promille bo'lgan).



Tug'ilganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)


	2020- yil	2020- yil promilleda	2021- yil	2021- yil promilleda
Navoiy viloyati	17 698	23,6	19 857	26,0
Navoiy sh.	2 383	21,9	2 844	25,7
Zarafshon sh.	1 452	23,0	1 578	24,8
G'ozg'on sh	109	20,0	163	24,6
Karmana t.	2 339	24,7	2 728	28,1
Konimex t.	607	22,6	609	22,4
Qiziltepa t.	2 433	21,3	2 712	23,4
Navbahor t.	1 911	22,5	2 148	24,9
Nurota t.	1 654	25,8	1 832	28,6
Tomdi t.	189	17,0	161	14,1
Uchquduq t.	736	26,3	708	25,0
Xatirchi t.	3 885	25,9	4 374	28,8

Vafot etganlar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 3 717 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – sentabr



2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 132 ta 1 yoshgacha go'daklar o'limi qayd etilgan bo'lib, har 1000 tirik tug'ilganga go'daklar o'limi koeffitsiyenti 6,6 promilleni tashkil etdi.



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



Nikoh. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 6 997 nafar nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,2 promilleni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega ko'paydi. (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,7 promille bo'lgan).




Tuzilgan nikohlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)



Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 920 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 0,9 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)



MIGRATSIYA

2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 325 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 9,6 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan minus 2,8 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 6,8 promille bo'lgan).

2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 8 744 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 11,5 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,4 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 9,1 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosi minus 1 419 kishi bo'lib, 2020- yilning o'tgan shu davrida minus 1 685 kishi bo'lgan.



**2020- yil
yanvar-sentabr**

**2021- yil
yanvar-sentabr**

Ko'chib kelganlar

5 119

7 325

Ko'chib ketganlar

6 804


8 744

Migratsiya saldosi


-1 685

-1419

Ko'chib kelganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)



Ko'chib ketganlar yanvar-sentabr holatiga, (kishida)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41